SIRDARYO VILOYATI MIRZAOBOD TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 16 - fevral 38-9-125-Q/23 Mirzaobod tuman hokimligi

Mirzaobod tuman hokimining 2022-yil 19-oktabrdagi 614-9-125-Q/22-son qarorini qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

1. Tuman hokimining 19-oktabrdagi 614-9-125-Q/22-son qarorining (*keyingi o‘rinda Qaror deb yuritiladi*) 1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

2023-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxona va muassasalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qarorning 2-bandi, ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

- o‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun 1,0 foiz (6 kishi);

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini

tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 2,2 foiz (13 kishi);

- safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,2 foiz (6 kishi);

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 foiz (32 kishi);

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0,2 foiz (4 kishi);

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 0,2 foiz (1 kishi);

- odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,2 foiz (1 kishi) ish o‘rinlarining zaxirasi belgilansin.

3. Qarorning 14-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Mazkur qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Xolkuziyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Yariyev**

Mirzaobod tuman hokimining
2023 yil 16 fevraldagi
38-9-125-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2023 yilda Mirzaobod tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynaladigan mexnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilish (KVOTA)

D A S T U R I

T/p	Korxona va tashkilotlar nomi	Topshiriq belgilangan korxonalar soni	Ularda ishlovchilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari soni		shu jumladan						
				Jami	shu jumladan nogironlar uchun	o'n to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun	umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar uchun	safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun	nogironligi bo'lgan shaxslar uchun	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun	odam savdosi qurbonlari uchun
				7,0%	3%	1,0%	2,2%	0,2%	3,0%	0,2%	0,2%	0,2%
1	1-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	1	24	2	1		1		1			
2	4-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	1	24	2	1	1			1			
3	5-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	1	35	2	1				1	1		
4	8-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	1	25	2	1		1		1			
5	10-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	1	26	2	1			1	1			
6	12-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	1	22	2	1		1		1			
7	13-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	1	30	2	1	1			1			
8	14 -SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	1	28	2	1			1	1			
9	16-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	1	26	2	1				1	1		
10	17-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	1	26	2	1		1		1			
11	18-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	1	28	2	1	1			1			
12	19-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	1	33	2	1				1			1
13	1-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	56	4	2	1		1	2			
14	2-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	42	3	2		1		2			
15	3-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	42	3	1	1	1		1			
16	9-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	39	3	2		1		2			
17	15-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	41	3	2		1		2			
18	18-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	35	2	2				2			
19	19-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	49	3	2		1		2			
20	26-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	50	4	2			1	2	1		
21	29-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	48	3	1	1	1		1			
22	34-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	1	36	3	1		1		1		1	
23	MIRZAOBOD TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	1	132	9	4		2	2	4	1		
	Jami	**23**	**897**	**63**	**32**	**6**	**13**	**6**	**32**	**4**	**1**	**1**

Страница 1